

Deixis va anaforaning gazeta matnlarida qo'llanilish holatlariga doir

Akram Abduxakimovich Sheramatov
Sardor Akmaljon o'g'li Hamroyev
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada deyksis va anaforaning lingvistik xususiyatalri, deyktik iboralar, birinchidan, turli tilshunoslar tomonidan turli ta'riflar berish, ikkinchidan, turli deyktik kategoriyalarni tahlil etish, deyktik iboralarning gazeta matnlarida qo'llanilish holatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: deyksis, matn, gazeta matni, pragmatika, anafora, deyktik so'zlar, ko'rsatish olmoshlari, so'zlovchi, tinglovchi

The usage of deixis and anaphora in newspaper texts

Akram Abdukhakimovich Sheramatov
Sardar Akmaljan's son Hamroyev
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article discusses the linguistic features of deixis and anaphora, deictic expressions, firstly, different definitions given by different linguists, secondly, the analysis of different deictic categories, cases of use of deictic expressions in newspaper texts.

Keywords: deixis, text, newspaper text, pragmatics, anaphora, deictic words, demonstrative pronouns, speaker, listener

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslik aynan tilshunoslik sohasida XX asrning eng kulminatsion nuqtalari bilan qamrab olingan bo'lishiga qaramay, XXI da ham mazkur sohaning lingvopragmatik, kognitiv tilshunoslik kabi bo'g'inlari hanuzgacha tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilib kelinmoqda.

Tilshunoslikning sara sohalaridan biri bo'lgan pragmatika kishilarning konkret nutqiy vaziyatda nutq harakatini qanday tahlil etish va amaliyotda qo'llashni o'rganadi. Deyksis pragmatika sohasiga tegishli bo'lib, u bevosita tilning tuzilishi va u qo'llanilayotgan kontekst o'rtasidagi munosabatni o'z ichiga oladi [5; 55]. Shu asnoda o'zi bilan voqelikka bo'lgan ko'rsatish holatini ham o'zida saqlab qola oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

“*Pragmatika*” atamasi tilshunoslikda birinchi marta 1960-yillarning oxirida faylasuf va tilshunos Charlz Morris tomonidan qo‘llanilgan. Morris bu atamani o‘zining “*Foundations of the Theory of Signs*” kitobiga kiritdi va unda semiotikaning uchta tarmog‘ini ajratdi: *sintaksis, semantika va pragmatika*. Morris pragmatikani belgilar va ularning foydalanuvchilari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish, ijtimoiy sharoitlarda ma‘noni bildirish uchun belgilardan foydalanish usullarini o‘rganish deya ta‘riflagan [2; 5].

Pragmatika tilning qo‘llanilishini va til foydalanuvchilarining ma‘noni yetkazish uchun kontekstdan foydalanish usullarini o‘rganadigan tilshunoslikning bo‘limlaridan biridir. Ushbu nutq jarayonida so‘zlovchilar muayyan kommunikativ maqsadlarga erishish uchun tildan qanday foydalanish va ijtimoiy o‘zaro ta‘sir orqali ma‘no qanday tuzilganligi o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi hisoblanadi. Pragmatika tilning rasmiy tuzilmasi doirasidan tashqariga chiqadigan bir qator holatlar, masalan, nutq aktlari, implikatura, presuppozitsiya, deyksis va anaphora kabilar shug‘ullanadi [4;18].

Pragmatika tilning real dunyo kontekstlarida, masalan, suhbat, reklama, siyosiy nutq va ommaviy axborot vositalari bilan muloqotda qanday ishlatilishini tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu nutq jarayonida nutq ishtirokchilari o‘z tinglovchilarining xulq-atvoriga ta‘sir qilish uchun tildan qanday foydalanishini va ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish va ma‘noni muhokama qilish uchun tildan qanday foydalanish mumkinligini tushuntirishga yordam beradi.

Pragmatika gaplarni talqin qilish, nafaqat lingvistik, balki nutqning konteksti va ishtirokchilarning holati haqidagi bilimlarga, masalan, gapning joyi va vaqti, so‘zlovchining niyati, nisbiy ijtimoiy mavqeiya oid turli iboralar bilan ishora qilgan ijtimoiy ma‘lumotlarga bog‘liq. Pragmatik xabardorlik til o‘rganishning eng qiyin jihatlaridan biri sifatida qaraladi va u ko‘pincha tajriba orqali hosil bo‘ladigan amaliyot hisoblanadi.

“*Deyksis*” atamasi tilshunoslikka XIX asr oxirida tilshunos olimlar tomonidan kiritilgan. Deyksis qadimgi yunoncha - δειξις (deîxis, "ishora qiluvchi, ko‘rsatuvchi") va δεικνυμι (deiknumi, "ko‘rsataman") so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, nutqni kontekstda talqin qilish uchun xizmat qiluvchi tilshunoslik va pragmatikaning muhim qismini tashkil qiladi [8].

Pragmatikaning otasi taxallusi olgan mashhur tilshunos Ch.S.Peirs bu atamaga pragmatikaga oid “*From Pragmatism to Pragmaticism*” asarida tegishli ta‘rifni bergan, u yerda ma‘lum tilning kontekstda qanday ishlashini va so‘zlar hamda iboralar atrofdagi olamdagi obyektlarga nisbatan qay tarzda qo‘llanilishini tushuntirishga harakat qilgan [1; 8]. Keyinchalik J. Layonz, R. Yakobson va P. Grays kabi boshqa tilshunos va faylasuflar deyksis tushunchasini va uning tildan

foydalanish va talqin qilishdagi rolini yanada shakllantirdi desak mubolag'a bo'lmaydi.[5; 62].

Deyktik konstruktsiyalar tilning muhim jihati bo'lib, gazeta matnlarining ravshanligi va uyg'unligiga xizmat qiladi. Ingliz tilidagi gazeta matnlarida deyktik belgilarini uchta asosiy turga bo'lish mumkin: *person deixis*(shaxs deyksis), *spatial deixis*(joy deyksis) va *temporal deixis*(vaqt deyksis). Ushbu jarayonda deyksisning boshqa turlarini ham ta'kidlab o'tish mumkin. Shu o'rinda biz tahlil qilib chiqqan inglizcha gazetalarda deyksisning lingvistik jihatdan voqelanishi, semantik jihatdan xususiyatlari haqida ham gapirilib o'tiladi. Deyktik birliklar o'z talqinida kontekstga tayanadigan lisoniy iboralar bo'lib, olmosh, ko'rsatish olmoshlari, o'rin-joy va payt ravish qo'shimchalari bilan uyg'unlashishi kuzatiladi. Gazeta matnlarida deyktik birliklar xabar matnida ishtirok etgan kishilar, joylar va hodisalarga ishora qilish uchun ishlatiladi. Ingliz gazetasi matnlarida umumiy deyktik birliklar qatoriga "he", "she", "it" va "they" kabi olmoshlar, shuningdek, "this", "that", "these", "these" va "these" kabi ko'rsatuvchi olmoshlar kiradi. "Here", "there", "now" va "then" kabi joy va vaqt qo'shimchalari ham ingliz tilida deyktik birliklar sifatida keng qo'llaniladi[3;86]. Bu so'zlar matnda uzatilayotgan ma'lumotning joylashuvi, vaqti va mazmunini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Matnda deyksis birliklar qo'llanishiga oid quyidagi misolni ko'rib chiqsak:

"I wish you'd been here yesterday."

Ushbu jumlada "men (I), siz (you), bu yerda (here) va kecha (yesterday)" so'zlari deyktik birliklar hisoblanadi. Biz ushbu nutq jarayonidan tashqarida bo'lganimiz sababli, "men" birinchi shaxs birlik kishilik olmoshi kimligini, "bu yerda" o'rin holi vazifasida kelayotgan so'z qayerdaligi va payt ravishi bolib kelgan "kecha" so'zi qachon bo'lganiga to'liq ishonch hosil qila olmaymiz; bu ma'lumot so'zlovchiga ma'lum va shuning uchun "deyktik" deb ataladi.

Pragmatikada deyksis bilan bir qatorda anaforani o'rganish ham uzoq va murakkab tarixga ega. Anafora tilshunoslik, falsafa, psixologiya va informatika kabi turli sohalarda o'rganilgan.

Anafora haqidagi dastlabki tadqiqotlar anaforik iboralarning sintaktik va semantik xususiyatlariga qaratilgan. 1960-1970-yillarda tadqiqotchilar anaforaning pragmatik jihatlarini, masalan, anaforik iboralarning nutq tuzilishi, axborotni tahrirlash va umumiy bilimlarni boshqarishdagi rolini o'rganishga kirishishgan.

1980-yillarda tilshunos tadqiqotchilar anafora va nutqiy harakat o'rtasidagi munosabatni tadqiq etishdi va shu bilan birga ko'plab tadqiqotlar o'tkazishgan. Aynan mazkur holatlarda anaforik iboralarning nutqning umumiy jarayonlashuviga qanday hissa qo'shishini tushuntirishga qaratilgan nazariyalarining rivojlanishiga imkon yarata oladi.

MUHOKAMA

Anaforik iboralar jummalarni kontekstda talqin qilishda, nutq izchilligini saqlashda, nutq munosabatlarini boshqarishda va aqliy modellarni qurishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ayni shu yo'sinda anafora va deyxsis o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar to'g'risida gapirib o'tsak, anafora va deyxsis pragmatikaning ikkita muhim tushunchasi bo'lib, ular o'zaro bog'liq, ammo funktsiyalari va xususiyatlari bilan ajralib turadi. Anafora va deyxsis o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar ko'rib o'tamiz:

O'xshashliklar:

1. Anafora va deyxsis til va kontekst o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq. Ularning ikkalasi ham lingvistik iboralarning ma'nosini izohlash uchun kontekstga tayanadi.

2. Anafora ham, deyxsis ham til tizimidan tashqaridagi biror narsaga ishora qiluvchi lingvistik iboralardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Anafora ilgari aytib o'tilgan lingvistik iboraga ishora qiladi, deyxsis esa kontekstdagi biror narsaga ishora qiladi. Shu bois ikkala atama bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qilib turish tayin.

3. Anafora ham, deyxsis nutqda uyg'unlikni yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Ular bir xil ob'ektlar yoki bir xil vaziyatga murojaat qilish orqali nutqning turli qismlarini bir-biriga bog'lashga ko'mak beradi.

Ikkala atamani bir-biridan farqli jihatlarini ko'rib chiqsak:

1. Anafora nutqda avval tilga olingan iboraga murojaat qiluvchi lingvistik iboralardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Deyksis esa bevosita kontekstdagi biror narsaga, masalan, ma'lum bir joy yoki vaqtga ishora qiluvchi lingvistik iboralardan foydalanishni tasvirlab beradi.

2. Anafora kishilik olmoshlari, aniq ot so'z birikmalari kabi turli shakllarda bo'lishi mumkin. Deyksis esa, odatda ko'rsatish olmoshlari, o'rin-joy, vaqt ko'satgichlari yoki shaxs olmoshlari kabi o'ziga xos lingvistik iboralar orqali amalga oshiriladi.

3. Anafora tez-tez takrorlashdan qochish va nutqda kommunikatsion jarayon yaratish uchun ishlatilsa, deyxsis esa muloqot sodir bo'layotgan kontekst haqida qo'shimcha ma'lumot berish uchun ishlatiladi.

4. Anafora ko'pincha g'oyalar yoki tushunchalar kabi mavhum ob'ektlarga murojaat qilish uchun ishlatilsa, deyxsis odatda kontekstdagi aniq ob'ektlarga murojaat qilish uchun ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, anafora va deyxsis til va kontekst o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq bo'lsa-da, ular o'ziga xos funktsiyalari va xususiyatlari bilan farqlanadi. Anafora nutqda ilgari aytib o'tilgan lingvistik iboralarga ishora qiladi, deyxsis esa bevosita kontekstdagi biror narsaga ishora qiladi.

Quyida ingliz va o‘zbek gazeta matnlarida uchraydigan deytik va anafirik birliklar misollar keltirib o‘tamiz:

“The suspect was caught on CCTV cameras. He was seen running away from the scene of the crime.” – (BBC News Posted on March 10, 2022)

Yuqoridagi misolda *“he”(u)* uchinchi shaxs birlik shaklda kelgan kishilik olmoshi oldingi jumlada tilga olingan *“suspect”(gumonlanuvchi)* so‘ziga murojaat qilish uchun ishlatilib, anafirik holat hosil qilib, jumladagi takrorlanishni oldini olmoqda.

“The reporter's speech was criticized by many. It was seen as insensitive to certain groups.” – (The Washington Post Posted on November 2, 2021)

Ushbu jumlada *“It”(u)* uchinchi shaxs birlik kishilik olmoshi oldingi jumlada berilgan *“The reporter’s speech (muhbirning nutqi)”* so‘ziga ishora qilib kelmoqda.

“The meeting is scheduled for tomorrow at 10 a.m.”

(The Washington Post, “Obama to meet with Dalai Lama on Friday, setting off China”(June 2016)

Ushbu jumlada *“ertaga soat 10 da”* iborasi uchrashuv vaqtini bildiruvchi deysis belgisidir. Bu voqea yoki harakatlar vaqtini ko‘rsatish uchun so‘zlardan foydalanadigan vaqt deysisning namunasidir.

Xuddi shunday, o‘zbek gazetasi matnlarida *“u”(he/she/it)*, *“ular”(they)*, *“bu”(this)* kabi olmoshlar deytik birlik sifatida keng qo‘llaniladi. *“Bu”(this)*, *“u”(that)* va *“ular”(those)* kabi ko‘rsatkichlar ham gazeta matnlarida aniq obyektlarga murojaat qilish uchun ishlatiladi. *“Bu yerda”(here)*, *“o‘sha yerda”(there)*, *“hozir”(now)*, *“keyin”(then)* kabi o‘rin va payt qo‘shimchalari ham o‘zbek tilida deytik birlik sifatida keng qo‘llaniladi.

“.....Bu qadimiy shahar islom dini sharofati bilan madaniyat va ilm-fanning eng muhim markazlaridan biriga aylandi” (Xalq so‘zi gazetasi, №237(8299) 03.11.2022)

Ushbu jumlada *“bu”* birlik shaklidagi ko‘rsatish olmoshi yuqorida aytib o‘tilgan geografik joy nomiga ishora qilib, matnda takrorlanishni oldini olish va gazetxonni berilgan kontekstda bir maromda yo‘naltirib deytik holat hosil qilmoqda. Bu nutqdagi gapiruvchini, tinglovchini yoki boshqa referentlarni ko‘rsatish uchun olmoshlardan foydalanilgan misoldir.

“Bugungi kunda Buxoroda ziyorat turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar keng quloq yoydi” (Xalq so‘zi gazetasi, №237(8299) 03.11.2022)

Berilgan jumladagi payt ravishini ifodalab kelgan *“bugungi kunda”* so‘zi aynan 2022-yil 03-noyabr holatiga ishora qilib, vaqt deysisini ifodalab kelmoqda.

Xuddi shunday, gazetasi matnlarida deytik konstruksiyalar axborotning joylashuvi va mazmunini aniqlashtirishga yordam beradi. Ko‘rsatish olmoshlari matn

parchalari o'rtasidagi sabab-natija aloqalarini amalga oshirish vositasi sifatida oldingi matnni xuddi keyingi voqealar sababidek ko'sata oladi [7;69]:

"The ministers have mostly been engaged in Grievances Committee meetings and closed-door discussions with party workers and leaders. However, this has caused discontent among voters and the Aam Janata Party workers." (The Daily Guardian. Monday, 22 May, 2023, Vol.2. Issue 120. WWW.THEDAILYGUARDIAN.COM)

Ushbu gazeta matnida keltirilgan misoldagi *"this"(bu)* ko'rsatish olmoshi oldingi jumlada keltirilgan matnga ishora qilgan holda, present perfect zamoni hamda *"cause"* fe'li yordamida sabab-natija aloqalarini bildirib, deyktik ishora vazifasida kelmoqda.

Deyksis tushunchasi universal bo'lib, deyktik birliklar ham ingliz, ham o'zbek gazetalarida mavjud. Ikkala tildagi deyktik birliklar matndagi ishtirokchilar, joylashuv va vaqt haqida kontekstual ma'lumotlarni taqdim etish orqali o'quvchini kontekstda bir maromda yo'naltirishga yordam beradi [6;22].

Ingliz tili bilan o'zbek tilidagi deyktik birliklarning farqi shundaki, o'zbek tilida deyktik belgilar tizimi ingliz tiliga nisbatan ancha rivojlangan. O'zbek tilida yaqin va uzoq masofani ko'rsatish uchun alohida belgilar mavjud bo'lib, ular so'zlovchi va referent o'rtasidagi turli darajadagi masofani ko'rsatadi, ingliz tilida esa bu maqsad uchun faqat bitta ko'rsatuvchi (*ya'ni, "this" yoki "that"*) mavjud. Chunki o'zbek tili murakkab hol tizimiga ega bo'lgan til bo'lib, deyksisda ko'proq o'ziga xoslikni ta'minlaydi.

XULOSA

Umuman olganda, pragmatika tildan foydalanishni kontekstda o'rganish bilan shug'ullanadi va so'zlovchi va tinglovchilar o'zlarining kommunikativ maqsadlariga erishish uchun tildan qanday foydalanishlari va ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali ma'no qanday tuzilganligini tushuntirishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek gazetalarida deyktik birliklarning qo'llanilishida ayrim farqlar mavjud bo'lsa-da, deyksisning asosiy vazifasi bir xil: kontekstli ma'lumot berish va o'quvchilarga xabar matnida tasvirlangan yangilik yoki voqea-hodisani gazetxonga tez, oson yetkazish barobarida gazeta matni mazmun-mohiyatini yana tushunarli tarzda amalga oshirishiga ta'sir qilishni amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pierce Ch S. "From Pragmatism to Pragmaticism". – Prometheus, 1995 – P.291
2. Morris Ch. W. Foundations of the Theory of Signs. – Chicago: The University of Chicago Press, 1938. – P. 63.
3. Kibrik A. E. Deixis. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – P. 385.

4. Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 420.
5. Lyons J. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. –P. 897.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 320 b.
7. Shermatov A. Ko‘rsatish olmoshlarining ilmiy-texnik matndagi xususiyatlariga doir. “Til tizimi sathlari: semantik-funksional va struktur asoslar” mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari.- Samarqand SamDCHTI nashri, 2009.- B.69.
8. <https://www.studysmarter.us/explanations/english/pragmatics/deixis/>
9. Sh. A. Abduxakimovich & H. S. Akmaljon o‘g‘li, (2022). INGLIZ VA O‘ZBEK GAZETA MATINLARIDA DEYKTIK BIRLIKLAR VA ULARNING MOHIYATI. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(24), 419-422.
10. Sh. A. Abduxakimovich & H. S. Akmaljon o‘g‘li, (2022). LINGVISTIKADA MATN TUSHUNCHASIGA OID QARASHLAR. Scientific Impulse, 1(3), 978-983.
11. Озокова, Ч. А., & Шерматов, А. А. (2019). К ВОПРОСУ ИСТОРИИ ТЕОРИИ ЖЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (НА ПРИМЕРЕ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЫ). In Современное общество: актуальные проблемы и перспективы развития в социокультурном пространстве (pp. 167-169).